

**BUXORIY VA TERMIZIYNING HAYOT YO'LI VA ISLOM  
HADISSHUNOSLIGIDAGI O'RNİ .**

***Norov Dilshod Abdusamatovich***

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tarix yo'nalishi talabasi*

***Telefon raqami : +998970264411***

***Email: [dilshodnorov212@gmail.com](mailto:dilshodnorov212@gmail.com)***

***Boboyev Mehrojiddin Faxriddin o'g'li***

*Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

***Telefon raqami: +998973523454***

***Email: [mehrojiddinboboev962@gmail.com](mailto:mehrojiddinboboev962@gmail.com)***

***Rahmatullayev Diyorbek Uralovich***

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

***Telefon raqami : +998 943490419***

***Email: [raxmatulayevdiyorbek857@gmail.com](mailto:raxmatulayevdiyorbek857@gmail.com)***

***Annotatsiya :***Ushbu maqolada imom Al- Buxoriy va imom at- Termiziyning hayot yo'li va islom hadisshunosligidagi o'rni haqida so'z yuritilgan bo'lib ,adabiyotlar tahlili hamda manbalar asosida yoritilgan.

***Kalit so'zlar:*** : “Al- Jome as- Sahih “,6 yil, haj ibodatini, sahih, hasan, «Al-mufrad», , roviylar, Bayrut, «ilal».

Islom olamida hadisshunoslik katta o'ringa ega bo'lib hisoblanadi. Uning yirik namayondalaridan Imom Buxoriy va Termiziy hazratlaridir. Taqriban olib qaraganda ular ularning yashash davrlari hamda hayot yo'llari o'xshashdir .Termiziy Buxoriyning eng sara shogirtlaridan bo'lib,o'zining hadislarini soddaligi barcha uchun birdek tushunarligi va o'qish osonligi bilan boshqa hadisshunoslardan farq qiladi ,eng ko'p sahih hadis esa bizga Imom Buxoriy orqali yetib kelganli bu yo'ning tamal toshini

qo'yganligidan dalolatdir. Xususan, o'xshash jihati esa biri yoshligida tug'ma ko'rliigi, ikkinchisi esa qariligida ko'r bo'lib qolishidir. Ya'ni ikkalasi ham hadis kitobini tuzgan mukammal qilib. Imom Buxoriy "Al-Jome as-Sahih" bo'lsa, Termiziyniki "Al-Jome" yoki "Sunnati Termiziy"dir. Boshqa bir qator mashhur asarlar yozib, payg'ambarimizning aytgan har bir foydali gaplarini eng to'g'risini bizga maqbul topishib me'ros qoldirishgan. Imom al-Buxoriy – Islom olamining eng salmoqli va hurmatli olim va fuzalolaridan bo'lgan va bugungi kunda ham uning qilgan xizmatlari va ilmiy hamda islomiy asarlari qadrlanmoqda. Hatto, dunyoning eng nufuzli oliygohlarida ham olimning asarlari darslik sifatida o'qilmoqda. Yurtdosh olimimizning to'liq ismlari – Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim Al-Buxoriy bo'lgan. Olim milodiy 810-yilda, Samarqand yaqinidagi Hartang qishlog'ida tavallud topganlar va o'zining 60 yillik umr yo'li davomida bu ummatga manfaatli bo'gan bir qancha asarlar yozib qoldirgan. Shuning uchun ham olim bugungi kungacha — Muhaddislar imomil, Hadis ilmining sultoni deya e'zozlanmoqda. Imom Al-Buxoriy o'sha paytlarda ham Markaziy Osiyoning eng mashhur va gavjum shahri bo'gan Samarqand yaqinidagi Hartang qishlog'ida Ismoil ota honadonida tavallud topganlar. Otasi Ismoil o'z davrining yetuk muhaddislaridan, ya'ni hadis to'plab, uni o'rganib, kitobga tushiruvchi, Malik ibn Alasning shogirdi va yaqinlaridan biri bo'lib, tijorat ishlari bilan shug'ullangan. Onasi taqvodor, diyonatli, oqila ayol edi. Otasi vafot etgach, uning tarbiyasi validasi zimmasiga tushgan. U 5-6 yoshidan islomiy ilmlarni, Muhammad (S.A.V)ning hadislarini o'rganishga va yodlashga kirishadi. Taniqli muhaddislar – Dohiliy, Muhammad ibn Salom Poykandiy, Muhammad ibn Yusuf Poykandiy, Abdulloh ibn Muhammad Masnadiy va boshqalardan saboq olgan. Azaldan muhaddislar safarga chiqishdan oldin o'z yurtidagi roviylardan birorta ham hadis qoldirmasdan yozib olgan bo'lishi va shundan keyingina boshqa shahar yoki mamlakatga safarga o'tlanishi mumkin edi. Shu ma'lumotdan xulosa qilsak bo'ladiki, ilmi-tolib ilm yo'lida yuribdimi, albatta o'z mamlakatining olimlaridan saboq olishi va keyin boshqa Imom Al-Buxoriy o'sha paytlarda ham Markaziy Osiyoning eng mashhur va gavjum shahri bo'gan Samarqand yaqinidagi Hartang qishlog'ida Ismoil ota honadonida tavallud topganlar. Otasi Ismoil o'z davrining yetuk muhaddislaridan, ya'ni hadis to'plab, uni o'rganib, kitobga

tushiruvchi, Malik ibn Alasning shogirdi va yaqinlaridan biri bo'lib, tijorat ishlari bilan shug'ullangan. Onasi taqvodor, diyonatli, oqila ayol edi. Otasi vafot etgach, uning tarbiyasi volidasi zimmasiga tushgan. U 5-6 yoshidan islomiy ilmlarni, Muhammad (S.A.V)ning hadislarini o'rganishga va yodlashga kirishadi. Taniqli muhaddislar – Dohiliy, Muhammad ibn Salom Poykandiy, Muhammad ibn Yusuf Poykandiy, Abdulloh ibn Muhammad Masnadiy va boshqalardan saboq olgan. Azaldan muhaddislar safarga chiqishdan oldin o'z yurtidagi roviylardan birorta ham hadis qoldirmasdan yozib olgan bo'lishi va shundan keyingina boshqa shahar yoki mamlakatga safarga o'tlanishi mumkin edi<sup>1</sup>. Milodiy 825-yil Buxoriy onasi va akasi Ahmad bilan Makkaga kelib, haj ibodatini ado etadi. Onasi va akasini Buxoroga qaytarib, o'zi Makkada qoladi. Bu yerda faoliyat ko'rsatayotgan olimlarning ilmiy yig'inida qatnashadi. 827-yil Madinaga boradi va Madinadagi mashhur ulamolardan Ibrohim ibn Munzir, Mutrif ibn Abdulloh, Ibrohim ibn Hamza va boshqalar bilan muloqotda bo'lib, ulardan hadislar bo'yicha saboq oladi. Bu vaqtda Rasulullohning sahobalari, sahobalarning izdoshlari turli mamlakatga tarqab ketgan edilar<sup>2</sup>. Shunday sharoitda Muhammad (S.A.V)ning hadislarini to'plash turli shahar va mamlakatlarga borishni taqozo qilar edi. Bir necha tarixchilarning ta'kidlashicha, Imom Buxoriy Hijoz, Makka, Madina, Toif, Jiddaga qilgan safarlari 6 yil davom etgan. So'ng Basra, Kufa va Bag'dodga safar qiladi va keyin Shom va Misrga o'tadi. Bundan tashqari Xuroson, Marv, Balx, Hirot, Nishopur, Ray, Jibol kabi shaxarlardagi olimlardan saboq oladi va hadislar to'pladi. Ushbu ilm to'plash davomida olim ko'plab asarlar yozdi. Ko'plab hadislarini roviylari bilan birgalikda jamladi va ularning barchasini sahih va nosahihga ajratib berdi. Sahih hadislar ishonchli hisoblanadi va bugungi kunda ko'plab musulmo diyorida hadislariga amal qilishmoqda. Hadis bu – Payg'ambar Muhammad (S.A.V)dan qolgan va bajarilishi ruxsat berilgan yoki bajarishdan qaytarilmagan amallar hisoblanadi. Imom Buxoriyning asarlari orasida eng mashhur bo'lgani – —Al-jome as-Sahihdir. Undan tashqari tarixiy voqealar va shaxslarni chuqur tahlil qiladigan, hadis ilmining asoslaridan bo'lgan ilmlarga oid bir

---

<sup>1</sup> [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Imom\\_al-Buxoriy\\_saboqlari](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Imom_al-Buxoriy_saboqlari)

<sup>2</sup> [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston\\_milliy\\_ensiklopediyasi](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_milliy_ensiklopediyasi)  
[www.tadqiqotlar.uz](http://www.tadqiqotlar.uz)

qator o'ta ahamiyatli kitoblar yozdi. Imom Buxoriyning ilmiy ahamiyati yuksak bo'lgan bir nechta asarlar tasnif qildi: Al-jome as-sahih, At-tarix as-sag'ir, —AT-tarix al-avsat, Al-adab al-mufrad, —At-tarix al-kabir, —At-tafsir al-kabir —Birrul volidayn, —Asmo as-sahoba, —Kunyalar va boshqalar. Ular orasidagi —Al-jome as-sahih asari islom olamida Qur'ondan keyingi eng muhim manba sifatida e'zozlanuvchi manba hisoblanadi. Aynan shu asarlar sababli ham Imom Al-Buxoriy bugungi kunda ham qadrlanmoqda va hatto uning avlodlari va yurtdoshlari sifatida O'zbekistonlik va hatto Markaziy Osiyolik insonlar ham musulmon diyorlarida hurmatga sazovor bo'lmoqdalar. Aynan Imom al-Buxoriy tufayli Movarounnahr hududida IX—XII asrlarda ko'plab hadisshunoslik maktablari shakllandi va muvaffaqiyatli faoliyat yuritdi<sup>3</sup>. At-Termiziy payg'ambar alayhissalom hadislarini to'plashga alohida e'tibor bilan qaraydi. Bu borada u har qanday qiyinchiliklarga bardosh beradi. U o'zi o'qigan yoki biror roviydan eshitgan hadisini alohida qog'ozlarga qayd etib borar, ularning asli va isnodini izchillik bilan aniqlab to'g'riligiga to'liq ishonch hosil qilsagina maxsus qog'ozlarga qayd etardi. Hadislarning to'g'riligiga shubha bo'lganda ularni alohida ajratib yozardi. Shu tariqa hadislar sahiyh (to'g'ri, ishonchli), hasan (yaxshi, ma'qul), zaif (bo'sh, ishonchsiz), g'ariyb (g'alati) kabi xillarga ajratilgan.

Hadis ilmini egallashda va takomillashtirishda imom at-Termiziy o'z davrining mashhur muhaddislaridan tahsil oldi. Uning ustozlaridan Imom al-Buxoriy, Imom Muslim ibn al-Hajjoj, Abu Dovud, Qutayba ibn Sa'id, Ishoq ibn Muso, Mahmud ibn G'iyon, Said ibn Abdurrahmon, Muhammad ibn Bashshor, Ali ibn Hajar al-Marvaziy, Ahmad ibn Muniy', Muhammad ibn al-Musanno, Sufyon ibn Vaqiy' va qator taniqli muhaddislarni ko'rsatish mumkin. Imom at-Termiziy o'z davrining yetuk muhaddisi sifatida ko'pgina shogirdlarga ustozlik ham qilgan. Uning shogirdlaridan Maqbul ibn al-Fazl, Muhammad ibn Mahmud Anbar, Abu ibn Muhammad an-Nasafyun, Hammud ibn Shokir, Xaysam ibn Kulayb ash-Shoshiy, Ahmad ibn Yusuf an-Nasafiy, Abul-Abbos Muhammad ibn Mahbub al-Mahbubiy kabi yetuk olimlarni ko'rsatish mumkin. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, at-Termiziyning ustoz va shogirdlari orasida turli mamlakat va elat vakillari borligi sezilib turibdi. Shu nuqtai-nazardan qaralganda, uzoq o'tmishda ham

---

<sup>3</sup> Moziydan tarqalgan ziyo. Imom al-Buxoriy, T. 1998;  
[www.tadqiqotlar.uz](http://www.tadqiqotlar.uz)

ilm-fanning taraqqiyoti va ma'rifat urug'larini tarqatish borasida turli o'lkalarning vakillari yakdil bo'lib faoliyat ko'rsatib samarali hamkorlik qilganliklari, umumbashariy qadriyatlar ravnaqi yo'lida haqiqiy baynalmilallik ruhi mavjud bo'lganligi hozirgi davrimiz uchun ham ibratli bir holdir. At-Termiziy zehning o'tkirligi hamda quvvai-hofizasi kuchliligi xususida tarixiy manbalarda ko'plab misollar, rivoyatlar keltiriladi. Jumladan, arab tarixchisi Shamsuddin az-Zahabiyning (1274-1347) «Tazkirat ul-huffoz» («Hofizlar haqida tazkira») nomli asarida quyidagi hikoya keltiriladi: Abu Iso Muhammad at-Termiziy Makkaga hajga borayotganida yo'lda mashhur muhaddislar bilan muloqotda bo'ladi va ularning biridan hadislardan saboq berishini iltimos qiladi. U olim: «Bo'lmasa qog'oz-qalam ol», degan. Aksiga olib shu payt at-Termiziy qalam topa olmagan va olim ro'parasida o'tirib eshitgan hadislarini yozib olayotgandek qog'oz ustida qo'lini harakat qildiravergan. Olim esa turli-tuman hadislardan yetmishga yaqinini hikoya qilgan. Shu orada olim qog'ozga qarab unda hech qanday yozuv yo'qligini ko'rgan va at-Termiziyning bu ishidan jahli chiqqan. At-Termiziy shunda bamaylixotir «Siz aytgan hadislaringizni yoddan aytib beraymi?», - deganu hozirgina olimdan eshitgan hadislarining hammasini birin-ketin takror aytib bergan. At-Termiziyning xotirasi kuchliligidan o'sha olim hayratga tushib qoyil qolganligini bildirgan<sup>4</sup>. Abu Iso at-Termiziyning boshqa bir yirik asari «Ash-shamoil an-nabaviyya» («Payg'ambarning alohida fazilatleri») deb ataladi. Bu asar ba'zi manbalarda «Ash-shamoil fi shamoil an-nabiy sallollohu alayhi vassallam», «Ash-shamoil al-Muhammadiya» nomlari bilan ham keltirilgan. Asar payg'ambar alayhissalomning shaxsiy hayotlari, u zotning suvrat va siyratlari, ajoyib fazilat va odatlariga oid to'rt yuzu sakkiz hadisi sharifni o'ziga jamlagan qimmatli manbadir. Bu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, ushbu mavzu ya'ni payg'ambar alayhissalomning fazilatleri, odatlari haqidagi hadislarini to'plash bilan juda ko'p olimlar, muhaddislar shug'ullanganlar va bu xildagi hadislar turli-tuman kitoblardan o'rin olgan. Lekin at-Termiziy asarining boshqalardan afzalligi va farqi shundaki, muallif imkoni boricha payg'ambar alayhissalom fazilatlariga doir barcha hadislarini muntazam ravishda to'plab, mantiqan izchil bir holatda tartibga keltirgan va o'ziga xos mustaqil, yaxlit kitob

---

<sup>4</sup>. Sharh at-Termiziy li-abi at-Tayyib al-Madiniy, 1-jild, 112-115-betlar.

shaklida tasnif qilgan. «Ash-shamoil an-nabaviyya» azaldan islomshunos olimlar va tadqiqotchilarning diqqatini o'ziga jalb qilib keladi. Arab tilida bitilgan ushbu asarga bir qancha sharxlar va hoshiyalar ham yozilgan. Ulardan Abdurauf al-Munoviy al-Misriyning (vafoti 1003 hijriy yili) «Sharh ush-shamoil», Ali ibn Sulton al-Haraviy al-Qoriyning (vafoti 1192 hijriy yili) «Jam' ul-vasoil fi sharhi ash-Shamoil», Sulaymon ibn Umar ibn Mansur al-Jumalning «Al-Mavohib al-Muhammadiyya bisharh ash-shamoil at-Termiziyya» kabilarni keltirish mumkin<sup>5</sup>. Imom at-Termiziyning bizgacha yetib kelgan «Al-ilal fil-hadiys» («Hadislardagi illatlar yoki nuqsonlar») nomli muhim asari ikki mustaqil asardan tashkil topgan. Ulardan biri «Al-ilal al-kabiy» yoki «Al-mufrad» nomi bilan atalgan asari bizgacha yetib kelmagan, degan taxmin bor. Garchand aksar tadqiqotchilar ham shunday fikrda bo'lsalar-da, Imom at-Termiziyning hayoti va faoliyatiga doir maxsus risola yozgan olim Nuriddin Atar (ushbu risolaning Bayrutda 1988 yilda chop etilgan ikkinchi nashrida) Turkiyaning qimmatli qo'lyozmalarga boy kutubxonalaridan birida at-Termiziyning «Al-ilal al-kabiy» asarining yagona qo'lyozmasini ko'rgani va undan fotonusxa olib o'z tadqiqotining ushbu qayta nashrida foydalangani haqida yozadi. Uning yozishicha, at-Termiziy «Al-ilal al-kabiy»ni ta'lif etgan paytda uni boblarga bo'lmagan holda yozgan. Ammo keyinchalik bu ajoyib kitob olim Abu al-Valid al-Qoziy tomonidan tartibga keltirilib boblarga ajratilgan va kitob oxirida mustaqil bir bob, hadis rijjol (roviy)lari haqidagi fikr mulohazalar bayon etilgan<sup>6</sup>.

### **Xulosa**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Imom Al Buxoriy Oltmish yillik umri davomida olimimiz ilm olishdan, izlanishdan, va uni boshqa ilm talabidagi insonlarga yoyishdan to'xtamaganlar. Shu sababli ham olim davrida va undan keyin ham bir necha asrlar davomida aynan Buxoriy tashkil etib ketgan hadis maktablari o'z o'rnini saqlab qoldi. Biz bugungi kun yoshlari mana shunday ajdodlarimizdan faxrlanishimiz, ularning merosini o'rganishimiz va alabatta o'zimizdan keying avlodga yetib borishini ta'minlashni

---

<sup>5</sup> Az-Zahabiy. Siyar, 12-jild, 296-bet; Miyzon al-e'tidol, 3-jild, 198-bet.

<sup>6</sup> Sovet Sharqi musulmonlari, 1990 yil, 3-son, 8-bet.

o'z oldimizga burch sifatida qabul qilishimiz lozim bo'ladi, albatta. imom at Termiziy bobokalonimizning shaxsiy hayoti va uning boy ma'naviy merosini chuqur va har tomonlama o'rganish ham ilmiy, ham amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Imom\\_al-Buxoriy\\_saboqlari](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Imom_al-Buxoriy_saboqlari)
2. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/O'zbekiston\\_milliy\\_ensiklopediya](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/O'zbekiston_milliy_ensiklopediya)
3. Moziydan tarqalgan ziyo. Imom al-Buxoriy, T. 1998;
4. Sharh at-Termiziy li-abi at-Tayyib al-Madiniy, 1-jild, 112-115-betlar.
5. Az-Zahabiy. Siyar, 12-jild, 296-bet; Miyzon al-e'tidol, 3-jild, 198-bet.
6. Sovet Sharqi musulmonlari, 1990 yil, 3-son, 8-bet.